

SANOAT KORXONALARIDA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMI  
SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Xalilov Nurullo Xamidillayevich

*PhD, dotsent. Andijon mashinasozlik instituti*

Qambarova Gulzira

*Andijon mashinasozlik instituti*

*Iqtisodiyot fakulteti Menejment yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

Har qanday iqtisodiy tizimning umumiy xususiyati bu samaradorlik bo‘lsa, tashkilotchilik yoki boshqaruvni takomillashtirishning bosh maqsadi ishlab chiqarish yoki faoliyatning boshqa tomonining samaradorligini oshirishdan iborat [1].

Hududdagi sifat boshqaruvi tizimining iqtisodiy samaradorligini ijtimoiy, iqtisodiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqamiz.

Bir tomondan, iqtisodiy taraqqiyot ijtimoiy tadbirlarni o‘tkazish uchun sharoit yaratadi. Hududni rivojlantirishning pirovard maqsadi aholi ehtiyojlarini yanada to‘liqroq qondirishdan iborat [2].

Boshqa tomondan, ijtimoiy omillar borgan sari iqtisodiy rivojlanish sur‘atlari va yo‘nalishlarini belgilab bermoqda, ishlab chiqarish va uning madaniyati va jozibadorligiga borgan sari yanada yuqoriroq talablarni qo‘ymoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida kasbiy bilimlar va ishchilar ma‘lumotlilik darajasi kabi ijtimoiy omillarning ahamiyati yanada ortadi, tabiatni muhofaza qilish tadbirlari ta’siri yanada kuchayadi, hududlardagi aholi hayot darajasini tenglashtirish masalasining ahamiyati ortadi.

Hudud miqyosda samaradorlik muammolari adabiyotlarda quyidagi bir nechta nuqtai nazardan kelib chiqib tahlil qilinadi:

- u yoki bu hududning amaldagi faoliyat samaradorligini aniqlash nuqtai nazardan;

- mehnatning hududiy bo‘linishining mehnat, tabiiy va moliyaviy resurslardan foydalanishning tarmoq samaradorligiga ta’siri nuqtai nazardan;

- u yoki bu resurs turidan foydalanish kabi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning alohida jihatlari holati nuqtai nazardan [3].

Shundan kelib chiqib, hududdagi sifat boshqaruvi tizimi samaradorligini, hudud iqtisodiyotining muayyan ichki tizimi sifatida, ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholash mumkin va kerak.

Hududdagi sifat boshqaruvi tizimi faoliyati samaradorligini baholashning yana bir muhim ko‘rsatkichi hududdagi aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi



hududiy mahsulot hajmining o'sish ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichi hududning iqtisodiy faoliyatining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi bo'lib, sub'ekt hududida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar ishlab chiqarilish holatini ko'rsatib beradi [4].

Hududdagi sifat boshqaruvi tizimini yuqorida bayon etilgan ko'rsatkichlar bo'yicha baholash uchun sifat boshqaruv tizimining rivojlanganlik darajasini belgilovchi tarkibiy ko'rsatkichlarni, taklif etilgan tizimli tamoyillarga muvofiq, ishlab chiqish kerak bo'ladi [5].

Hudud sifat boshqaruvi tizimining to'liqligi va hudud sanoati rivojlanish darajasiga muvofiqligini baholashda hududda sifat sohasi bo'yicha taklif etiladigan xizmatlar sonining hududdagi iqtisodiy rivojlanish sur'atiga nisbati bilan ifodalanadigan koeffitsientni taklif etamiz.

$$K_1 = \frac{Txiz}{R} \quad (2.13),$$

Bu yerda  $Txiz$  – hududda sifat sohasida (sertifikatlash, litsenziyalash va sifat boshqaruvi bo'yicha) taklif etiladigan xizmatlar soni;  $R$  – hudud iqtisodiyotining o'sish sur'ati.

Mazkur ko'rsatkich hududdagi sifat boshqaruvi tizimi samaradorligi boshqa hududlar bilan solishtirma tahlil qilish uchun qo'l keladi.

Sifat boshqaruv tizimining ildamlab rivojlanish darajasini baholash uchun sertifikatlash, litsenziyalash va sifatni boshqarish bo'yicha xizmatlar diapazoni darajasini ifodalovchi koeffitsientni taklif etamiz (1):

$$K_2 = \frac{Ni}{Ri} \quad (1),$$

bunda  $Ni$  – sifat sohasida taklif etiladigan xizmatlar (sertifikatlash, litsenziyalash va sifatni boshqarish bo'yicha) soni;  $Ri$  – hudud real iqtisodiyoti tomonidan talab qilinadigan sertifikatlash, litsenziyalash va sifatni boshqarish bo'yicha xizmatlar soni (ekspert usulida aniqlanadi, bunda hududiy hokimiyat ijro organlari tomonidan hududdagi korxonalar va tashkilotlarda vaqti-vaqti bilan anketa so'rovnomalari o'tkaziladi);  $i$  – belgilangan muddat.

Ushbu koeffitsientga quyidagi sifat sohasidagi xizmatlarning rivojlanish darajasi, ularning hudud iqtisodiyoti talablariga muvofiq yangilanishini ifodalovchi sifat xizmatlari o'zgaruvchanligi koeffitsienti yordamida to'g'rilashlar kiritiladi (2):

$$K_2 = \frac{Ni+I}{Ni} \quad (2),$$

bunda  $Ni$  – belgilangan muddat davomida hududdagi konsalting tashkilotlari tomonidan taklif etiladigan sifat sohasidagi (sertifikatlash,



litsenziyalash va sifatni boshqarish bo‘yicha) xizmatlar sonining o‘zgarishi; I – ko‘rsatiladigan xizmatlar soni; i – belgilangan muddat.

Integratsiyalashganlik tamoyiliga muvofiq, sifat boshqaruv tizimining hudud iqtisodiy tizimiga integratsiyalashganligi darajasini ekstensiv va intensiv yo‘l bilan aniqlash mumkin [6].

Integratsiya ekstensivligini ko‘rsatuvchi koeffitsient hududdagi sifat boshqaruv tizimida ishtirok etuvchi korxonalar va tashkilotlarning jamini hududdagi tashkilotlarning umumiy soniga nisbati bilan ifodalanadi (3):

$$K_{\text{экс}} = \frac{Tc\delta m.}{T_{\text{yMUM}}.} \quad (3),$$

bu yerda  $T_{\text{сbt.}}$  – hudud miqyosida sifatni boshqarish tizimida ishtirok etuvchi tashkilotlar soni;  $T_{\text{umum.}}$  – hududdagi tashkilotlarning umumiy soni.

Integratsiya intensivligini ko‘rsatuvchi koeffitsient yordamida hududdagi sifat boshqaruv tizimi tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarni boshqarish va ishlab chiqarish jarayonlariga sifat tizimi funksiyalari qay darajada chuqur kirib borganligi aniqlanadi (4):

$$K_{\text{int}} = \frac{T_{\text{mhsbt}}}{T_{\text{mhs umum}}} \quad (4)$$

Bu yerda  $T_{\text{mhs sbt}}$  – hududdagi sifat boshqaruvi doirasida mahsulot hayot sikli bosqichlari va boshqaruv elementlarining jami;  $T_{\text{mhs umum.}}$  – mahsulot hayot sikli bosqichlarining umumiy yig‘indisi.

Mazkur koeffitsient sifat boshqaruvi maqsad va vazifalari doirasida amalga oshiriladigan mahsulot hayot sikli bosqichlari va boshqaruv elementlari jamining mahsulotlar hayot sikli bosqichlarining umumiy soniga nisbati bilan aniqlanadi [7].

Hududning sifat sohasida infratuzilma bilan ta‘minlanganlik darajasi sifat boshqaruv tizimining tuzilmaviy to‘liqligini va uning ko‘ptarmoqliligini va komplektligini ifoda etadi. Hududning sifat sohasida infratuzilma bilan ta‘minlanganlik darajasini sifat sohasi infratuzilmasini ifoda etuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining jami korxonalar soniga nisbati bilan aniqlash taklif etiladi.

Taklif etilgan koeffitsientlar hududning sifat boshqaruv tizimi faoliyati samaradorligini yanada to‘liqroq baholash va uni takomillashtirishning ustivor yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, kompaniyaning katta-kichikligi - bu asosiy ko‘rsatkich emas. Mening nazarimda, kompaniya ISO standarti darajasiga yetish uchun avval majoziy ma‘noda “pishib yetilishi” kerak. Birinchi navbatda, korxonaning o‘zida sifat boshqaruvi tizimi shakllanishi kerak. Bunday tizim



shakllanishi uchun esa biznes uzoq muddatdan beri yiqilmasdan o‘zini barqaror tutib faoliyat yuritib kelayotgan bo‘lishi kerak.

Kichik biznesda, haqiqatdan ham, ko‘pgina korxonalar tashkil etiladi-yu, bir pasdan keyin yopilib ketaveradi, ya’ni barqarorlik va muntazamlilik kam kuzatiladi. Tadbirkorlar hamma sohalarga qo‘l urib ketaverishadi, biri o‘xshamasa, ikkinchi ishga qo‘l uradilar. Ularning qaysidir biri muvaffaqiyatli chiqsa, qaysidirlari esa muvaffaqiyasiz tugayveradi. Turgan gapki, ularda barqaror biznes shakllanmaguncha, ular hech qanday sifat boshqaruvi tizimi haqida bosh qotirmaydilar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Управление качеством: учебник/ коллектив авторов; под общей редакцией С.А.Зайцева. – Москва : КНОРУС, 2018. -422с. – (Бакалавриат и магистратура). 9-10 стр.

2. Ребрин Ю.И. Управление качеством: Учебное пособие. Таганрог:Изд-во ТРТУ, 2004. 8 с.

3. Халилов Н.Х., Сафина Н.Т. “Sanoat korxonalarida sifat menejmenti tizimi rivojlanishini baholash bo‘yicha yondashuvlar”; ISSN 2181-1539 277 Andijon mashinasozlik instituti Ilmiy-texnika jurnali №2, 2023 yil [www.andmiedu.uz](http://www.andmiedu.uz) (229-237 betlar) (ОАК Журнали).

4. Мишин В.М. Управление качеством: Учебник для студентов вузов, обучающихся по специальности «Менеджмент организации»/ В.М. Мишин — 2-е изд. перераб. и доп. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. – 7-9 с.

5. Н.С.Яшин “Развитие методологии анализа результативности системы менеджмента качества промышленных предприятий”. [электронный ресурс] <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-metodologii-analiza-rezultativosti-sistemy-menedzhmenta-kachestvapromyshlennyh-predpriyatiy/viewer>

6. Е.С.Григорян, Н.С.Яшин “Методические подходы к оценке результативности системы управления качеством”. [электронный ресурс] <https://cyberleninka.ru/article/n/metodicheskie-podhody-k-otsenke-rezultativnosti-sistemy-upravleniya-kachestvom>

7. Халилов Н.Х., Сафина Н.Т. «Современные проблемы управления качеством на предприятиях лёгкой промышленности в Республике Узбекистан». Colloquium-journal №15 (138), 2022 Część 1 (Warszawa, Polska). ( ISSN 2520-6990 ISSN 2520-2480) 81-83p. <https://colloquium-journal.org/wpcontent/uploads/2022/06/Colloquium-journal-2022-138-1>.

